

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI VA SHAKLLARI

Xasanova Maftuna Ixtiyor qizi,

Buxoro Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistri

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich ta'limda "Ona tili" fanini o'qitishning asosiy maqsadi, uning vazifalari, shu maqsadga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish jarayonining dastlabki elementi loyihalash faoliyati ekanligi, ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish o'zaro bog'liq 3 bosqichda amalga oshirishi haqida ilmiy-nazariy fikr va mulohazalar berilgan.

Аннотация. В статье рассмотрена основная цель обучения «Родному языку» в начальной школе, ее задачи, содержание обучения родному языку согласно этой цели, указано, что первым элементом процесса проектирования творческой деятельности учащихся является проектная деятельность, преподавание родного языка научно-теоретического заключения о проектировании творческой деятельности учащихся в 3 взаимосвязанных этапа и комментарии даны.

Annotation. The article discusses the main goal of teaching "Native language" in primary school, its tasks, the content of teaching the native language in accordance with this goal, it is indicated that the first element of the process of designing creative activity of students is project activity, teaching the native language, a scientific and theoretical conclusion about the design of creative activity students in 3 interconnected stages and comments are given.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich ta'limdan boshlab o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilim o'zlashtirishga ehtiyojini, asosiy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirishga zarur shart-sharoitlarni yaratib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "o'qitish usullarini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, kichik yoshdan o'quvchilarda o'qishga sog'lom,

kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakllantirish¹” kabi muhim vazifalar belgilangan. Umumiy o'rta ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, xalqaro baholash dasturlari asosida o'quvchilarda o'qish, savodxonlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limining sifati va samaradorligiga alohida e'tibor berilmoqda.

Boshlang'ich ta'limda “Ona tili” fanini o'qitishning asosiy maqsadi – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgaralar fikrini angelaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Ona tili” va “O'qish savodxonligi” fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

- o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish;

- o'quvchilarda grammatikaga oid o'zlashtiriladigan bilimlar (fonetika, leksikologiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalar)ni rivojlantirish;

- ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrini to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

- o'quvchilarimizda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash, tafakkurning yuksalib borishini rivojlantirish;

- o'quvchida to'g'ri talaffuz, imlo, uslub, so'z qo'llash (yangi so'zlarni o'zlashtirish, so'zlarni tanlash, so'zlarni to'g'ri qo'llash) ga doir ko'nikma, malakalarni, ko'nikmani malakaga, malakani odatga aylantirishni shakllantirish;

- mumtoz so'z ma'nosidagi ma'rifat, ma'naviyat, qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga singdirib borish, o'quvchilarimizda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash, tafakkurning yuksalib borishini rivojlantirish;

- ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda to'g'ri va ravon bayon eta olishni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.

iborat. Shundan kelib chiqqan holda ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi.

Shu maqsadga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni:

-o'quvchining fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish;

- o'quvchilarning o'z-o'zini, moddiy borliqni tilning ifoda vositalari yordamida anglashga hamda o'z fikri va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishini ta'minlash vazifalarini hal etishga yo'naltiriladi.

Professional ta'limda o'quvchi sohaviy ilmiy-ommabop nutqni tushunadi, tinglangan matndagi asosiy axborotni ajratib oladi, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etadi, tinglab tushunadi. Nutqning to'g'riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta'sirchanligini anglaydi, barqaror atamalar, kasb-hunar so'zlarining ma'no xususiyatlarini farqlaydi.

O'quvchi nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta'sirchan ifoda eta oladi, leksik, grammatik va stilistik me'yorlarga amal qiladi, nutqda mantiqiy urg'uni o'rinli va to'g'ri qo'yadi. O'quvchi turli janrdagi matnlarni ifodali va ta'sirchan o'qiy oladi, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, his-hayajon, sodda va qo'shma gaplarni ohangini hikoya qilib o'qiydi. O'quvchi fikrni mantiqan izchil ifodalaydi, nutqda kirish va kiritmalardan, ko'chirma gaplardan, tilning ifoda vositalaridan, fikr ifodasida qo'shma gapning oddiy va murakkab turlaridan foydalanadi. Yozma nutqida tinish belgilarini o'rinli qo'llaydi.

O'quvchi ijodiy matnlar yarata oladi. Imlo va uslubiy qoidalarga amal qiladi. Rasmiy va shaxsiy xatlarni farqlaydi. Ixtisoslikka oid matn tuza oladi, bunda til birliklaridan o'rinli foydalanadi. Fonemalar tasnifi va uslubiyatini tushuna oladi, fonetik o'zgarishlarni orfoepik qoidalar nuqtayi nazaridan tahlil qila oladi, ohang va urg'uni nutqda qo'llay oladi.

So'zlarning ko'chma ma'nosi, uslubiy xususiyatlari va atamalarni farqlay oladi, ulardan nutqda to'g'ri foydalana oladi. O'zbek tili leksikasining rivojlanishi, boyish manbalarini izohlay oladi.

So'z turkumlari, undov, modal va taqlid so'zlar, ularning otlashishi hamda uslubiy xususiyatlarini tushuna oladi va izohlaydi. So'z birikmasi, gap va uning grammatik belgilarini, dialogik nutq belgilarini, gap bo'laklarini, sodda va qo'shma gaplar ma'nodoshligini tushunadi. Sintaktik qurilmalarni, ko'chirma gapning boshqa gaplardan farqini, matnning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay oladi va muloqotda grammatik hamda sintaktik birliklardan o'rinli foydalana oladi.

Badiiy matnni o'qish va uni badiiy idrok etishda figura va fonga diqqat qaratish, estetik ta'sir, ijodiy tafakkur ustuvorligi asosida ona tili darslarida badiiy tasvir vositalari va she'riy san'at turlarini matndan aniqlash, atash, izohlash, tahlil qilish, badiiy uslubda matn yaratishni o'rgatish (bilish, tushunish, qo'llash, tahlil, umumlashtirish) asosida takomillashtirishga yo'naltiriladi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish murakkab tizim bo'lib, loyihalash maqsadga muvofiq faoliyat, faoliyat vositasi, faoliyat predmetidan iborat. O'quv materialiga metodik ishlov berish u yoki bu mavzuni o'qitishga oid maqsadlar tizimini belgilash va shu maqsadlarga mos vositalarni tanlash, ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan ishlarni hisobga olib ta'limni loyihalashtirish jarayonining uch tarkibiy qismini ajratamiz.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish jarayonining dastlabki elementi loyihalash faoliyatidir.

Loyihalashga oid faoliyat – o'quv predmetini o'qitish uslubiyatini yaxshi biladigan o'qituvchi, dasturchi, psixolog, dizayner va boshqalarning faoliyati. O'qituvchi o'zi dars beradigan o'quv predmeti mazmuni, xususiyatlarini hisobga olib ta'lim maqsadi, vositasi, natijalarini belgilaydi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish jarayonida o'qituvchi turli didaktik nazariya, qarashlardan kelib chiqib, loyihalash predmeti - ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov beradi. "Ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish yo'li bilan ta'limning keng qamrovli, katta, universal loyihalari konsepsiya, dastur, darslik shaklida tayyorlanadi. Katta, universal didaktik loyihalarni amalga oshirishda ikkilamchi loyihalar - dars ishlanmalari, rejalari, konspektlari sifatida ishlab chiqiladi".

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish o'zaro bog'liq 3 bosqichda amalga oshadi: 1-bosqich — loyihaning ideal loyihasini ongda yaratish; 2-bosqich — loyihani yaratish; 3-bosqich — ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish jarayoniga tatbiq etish.

Birinchi bosqichni amalga oshirish uchun fan o'qituvchisi o'quvchilarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablarni, o'quv materialini o'rganish maqsadlarini, loyihaning didaktik maqsadlarini aniqlaydi va ularni inobatga olgan holda o'quv materialiga pedagogik ishlov beradi. Bu bosqich fan o'qituvchisi tomonidan pedagogik so'enariy yozish bilan yakunlanadi.

2-bosqichda fan o'qituvchisi tuzib bergan pedagogik ssenariy asosida loyiha yaratiladi.

3-bosqich asosan, fan o'qituvchisining faoliyatidan iborat bo'lib, o'qituvchi tayyor loyiha asosida darslarni tashkil etadi.

Didaktik loyihani bajarish esa ikki bosqichda amalga oshiriladi: loyihani tayyorlash bosqichi; loyihani amalga oshirish bosqichi. Loyihani amalga oshirish bosqichida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning quyidagi o'quv ishlari tashkil etiladi:

- darsning maqsadi, vazifalari, o'quvchilar bajaradigan muammo, topshiriqlarni ularga yetkazish, qilinadigan ishlar bo'yicha ko'rsatmalar berish;
- o'quvchilarni faol mustaqil faoliyatga yo'llash, o'quvchilar diqqatini mavzuga qaratish, qiziqishlarini oshirish, yangi muammolarni yechishga ehtiyoj va o'qishga havas uyg'otish;
- joriy o'quv ishlarining natijasini nazorat qilish ta'lim jarayonining ajralmas qismi sanaladi. Ta'lim natijalari dasturda ko'zda tutilgan savol, topshiriq, muammo, mashq, test topshiriqlari vositasida nazorat qilinadi.

Tayyorlangan loyiha pedagogik ishlanma bo'lib, unda u yoki bu mavzu bo'yicha axborotlarni qabul qilish, unga ishlov berish, bilimlar asosida ko'nikmalarni shakllantirish, ko'nikmalarni takomillashtirib malaka darajasiga ko'tarish, mavzuni to'liq o'zlashtirish masalalari to'liq qamrab olinadi. Bundan ko'rinadiki, loyihada:

- ta'lim jarayonining akt, bo'g'in, bosqich, davrlari hisobga olinadi;
- o'qitish mehnatining o'ziga xos xususiyatlari qayd etiladi;
- o'quvchilarning o'quv materialini idrok etish, ularni bilish, tushunish, tatbiq qilish, tahlil qilish va qayta birlashtirish, baholashga oid xatti-harakatlari nazarda tutiladi;
- ta'lim natijalari, o'zlashtirishning quyi darajasidan yuqori darajasiga ko'tarilish omillari, mashqlar tizimi, testlar to'plami ko'zda tutiladi. O'quvchi va o'quv materialining o'zaro ta'siri o'quvchi faoliyatiga ko'ra tahlil qilinib, bu ta'sirning jarayoniy xususiyatlari tavsiflandi. Endi o'zaro ta'sir o'quv materialiga ko'ra o'rganiladi. Shu yo'l bilan o'zaro ta'sirga vositaviy tavsif berishga harakat qilamiz. O'zaro ta'sirga oldin o'quvchi, keyin o'quv materialini jihatidan tavsif berish yo'li bilan uning mohiyatini anglashimiz osonlashadi.

O'zaro ta'sir yaxlit tizim bo'lib, o'ziga oid maqsad, vosita, natijaga ega. Oldingi bosqichda amalga oshirilgan maqsad, keyingi bosqichda yangi bilimlarni egallash, yangi-yangi muammo, topshiriqlarni bajarish vositasiga aylanadi. Zero, "ijodiy bilishning asosiy belgilaridan biri, insonning o'z ixtiyoridagi bilimlarni yangi bilimlar bilan boyitish sharti sifatida ishlatishdir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni
2. Sh.M.Mirziyoyev “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi 2018-yil 5-sentyabrdagi PF-5538-son Farmoni
3. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. 132 bet
4. Markova A.K. O‘qituvchi faoliyatini psixologik tahlil qilish. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi. .:M, 1993, 235 bet 6-11
5. Matchonov S. va b. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –T., Yangiyo‘l poligraf serfis. 2008.
6. Mamatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. –T.: Istiqlol. 2010.
7. Pulatova D., Boshlang‘ich ta’limga innovatsion texnologiyalarni joriy etish usullari, T.: 2011.z